

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

«O'simlikshunoslik» kafedrası

EM-XASHAK YETISHTIRISH

fanidan kurs ishi bajarish uchun

USLUBIY KO'RSATMA.

(Agronomiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun).

Andijon - 2005

Ushbu uslubiy kursatmalar O'simlikshunoslik kafedrasida majlisida makullangan, bayonnoma №1

Agronomiya fakulteti uslubiy komissiyasi yigilishida tasdiklangan, bayonnoma №2

Institut uslubiy kengashida tasdiklangan, bayonnoma №2

Tuzuvchi- Qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dotsent **O.Mirzaev**

Takrizchi-dotsent **Z.Jumaboyev**

KURS ISHINING VAZIFALARI.

Xo'jalikda chorvachilikni rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri bo'lib mustahkam yem-xashak bazasini yaratish xisoblanadi.

Em-xashak yetishtirish deb qishloq xo'jaligini dalalarda va ekilgan hamda tabiiy o'tzorlarda yem-xashak o'stirish bilan shug'ullanuvchi tarmog'iga aytiladi. Agronomiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv rejasida yem-xashak yetishtirish fanidan kurs ishi bajarish mo'ljallangan. Kurs ishi yem-xashak yetishtirish fanidan nazariy qismini o'rganish bilan birgalikda olib boriladi.

Kurs ishini bajarish bilan talaba mustaqil ravishda o'quv dasturini keng, murakkab, ishlab chiqarish uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qismlarini chuqurroq o'rganadi.

Kurs ishini asosiy vazifasi bo'lib talabalarni «Em-xashak yetishtirish» fanidan olgan bilimlarini mustaxkamlash va tartibga solish, mustaqil fikrlashga o'rgatish hamda olgan nazariy bilimlarini ishlab chiqarish vazifalarini xal etishda qo'llay olishini bilishdir.

Kurs ishi o'z ichiga ilmiy izlanish elementlarini olib ijodiy xarakterga ega bo'lishi kerak, ma'lum xo'jalik, materiallariga asoslanib yozilgan va ozuqabop o'simliklar o'stirish texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar berilishi lozim.

Talabalar kurs ishi bajarishda asosiy darslikdan tashqari yangi chiqqan monografiya, kitob, tavsiya, qo'llanmalar, jurnallar va ilg'orlar tajribasidan foydalanishni o'rganadi. Kurs ishi ustida mustaqil ishlash talabani diplom ishini tayyorlashda muxim bosqich xisoblanadi.

KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH

Kurs ishida muqova, mundarija, asosiy tekst (jadval, sxema, chizma va rasmlar) va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'ladi. Kurs ishi muqovasi quyidagicha bo'ladi.

Kurs ishining titul varakasi

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI.

O'simlikshunoslik kafedrası

«Em-xashak yetishtirish» fanidan

KURS ISHI.

Mavzu _____

Bajaruvchi: Agronomiya fakul'teti, Agronomiya ta'lim yo'nalishi
_____ bosqich _____ gurux,

Talabasi _____

Tekshirdi _____
« _____ » _____ 200__ yil

Baxo _____

K u r s i s h i m a v z u l a r i

1. Tabiiy ozuqa maydonlari yuza yaxshilash sistemasini ishlab chiqish.
2. Xo'jalikda xayvonlarni maxsuldorligini xisobga olgan xolda ozuqa balansini tuzish.
3. Madaniy sug'oriladigan yaylovlar barpo etish uchun agrotexnik tadbirlar kompleksini ishlab chiqish.
4. Xo'jalik uchun yashil konveyer tuzish.
5. YAYlov davri uchun ko'k o't balansini tuzish.
6. Xo'jalikda ozuqa oqsili muammosini xal etish yo'llari.

Kurs ishi mavzulari talaba kelajakda ishlashi mumkin bo'lgan aniq xo'jalik misolida yoziladi.

Kurs ishinin matni qisqa, aniq, grammatika qoidalariga rioya etib bayon etiladi. Ish talaba tomonidan (210x310mm) yozuv qog'ozining bir tarafiga siyox bilan yuqori, pastki va yon tomonlaridan 3sm qirg'oq qoldirilib yoziladi. Xamma nomlar, qisqartirishlar va belgilar umumiy qabul qilingan qoidalar bo'yicha yoziladi. Kurs ishini rasmiylashtirishda xat boshidan yozish, jadval, rasm va chizmalar tuzishga ahamiyat berish kerak. Jadvallarning tartib nomerlari sarlovxadan oldin arab raqam bilan quyilib, nuqta bilan ajratiladi. Rasm, chizma va sxemalar ham nomerlanib, ularni ma'nosini ifodalovchi yozuv oldiga quyiladi. Jadvallarning sarlovxalari qisqa aniq va uni ma'nosini to'la anglatishi kerak.

Ishni xamma varaqlari nomerlanib va muqovalanib tikiladi.

Kafedraga topshirilgan kurs ishi tekshiriladi, so'ng talaba ximoya qiladi va unga tegishli baxo quyiladi. Talaba kurs ishini imtoxondan oldin ximoya qilishi kerak.

Kurs ishi taxminan quyidagi reja asosida yoziladi (2-tema uchun).

REJA.

KIRISH. Bu qismda xo'jalikda chorvachilikni va yem-xashak yetishtirishni rivojlantirishdagi istiqbollari ko'rsatiladi 2-3 bet.

1. Qaysi xo'jalik to'g'risida yozilayotgan bo'lsa shu shirkat, dexqon yoki fermer xo'jalikning (nomi) TUPROQ IKLIM va IQTISODIY SHAROITLARI. (Bu qismda xo'jalikning tuproq sharoitlari mexanik tarkibi, ozuqa moddalari bilan ta'minlanganligi va boshqalar.)

IKLIM SHAROITLARI-tuman meteostantsiyadan keyingi uch yillik ma'lumotlar olinib yoziladi.

IQTISODIY SHAROITLARI keyingi 3 yil davomidagi ekinlar strukturasi, ular xosildorligi, chorvachilik va dexqonchilik maxsulotlari yetishtirish rejalari va ularning bajarilishi va tarmoqlar rentabelligi yoziladi. (5-7 bet).

2. Qaysi xo'jalik to'g'risida yozilayotgan bo'lsa shu (jamo'a, shirkat, dehqon yoki fermer) xo'jaligining (nomi) chorvachilik maxsulotlarini yetishtirish uchun ozuqa balansi, (xajmi chegaralanmaydi).

2.1. 200_ yili uchun xo'jalikni ozuqaga bo'lgan ehtiyojini xisoblash. (1 jadval)

2.2. 200_ yilda ozuqa olinadigan manbalar va ulardan olinadigan ozuqalar miqdori. (2 jadval)

2.3. 200_ yil uchun ozuqa balansi. (3 jadval)

2.4. 200_ yilda yetishmagan ozuqani qoplash yoki ortiqcha ozuqadan samarali foydalanish yo'llari.

2.5. Xo'jalikda ozuqa ekinlari o'stirish agrotexnikasining yutuq va kamchiliklari.

3. Xulosalar (1-2 bet.)

2.1. 200 yil uchun fermaning ozuqaga bo'lgan extiyoji

Xayvon turlari	Bosh soni	Konsentrat yemlar			SHirali ozuqalar						
		Beril Kunlar Soni	Ibosh uchun I kun soni	YA lpi T.	Silos			Ildiz mlareva			
					Beril kunda kg	Ibosh uchun Ikunda Kg	YA lpi T.	Beril kunda kg	Ibosh uchun Ikunda kg	YA lpi T.	
Jami											
Extiyot fond											
Xammasi.											

Eslatma: SHirali ozuqalar va ko'k o't uchun 15% extiyot fond, konsentrat yemlar va dagal ozuqalar uchun 10% extiyot fond qo'shiladi.

Dagal xashak						Ko'k o't		
Pichan			Somon			Beril kunda kg	Ibosh uchun Ikunda kg	YAlpi T.
Beril	I bosh uchun I kunda kg	YAlpi T.	Beril kunda kg	Ibosh uchun Ikunda kg	YAlpi T.			

2.2. 200_ yilda ozuqa olinadigan manbalar va ozuqa miqdori

Ozuqa manbaalari	Konsentrat yemlar			SHirali ozukalar					
	Maydon, ga	Xos-il, ts/ga	YAlpi T.	silos			Ildiz mevalar		
				May. ga	Xosil ts/ga	Jami t	May-don ga.	Xosil ts/ga	jami T.
Jami									

2.3. 200_ yil uchun ozuqa balansi.

№	Ozuqa turlari	Extiyoj t.	Etishtiriladi t.	Extiyojdan.	
				kam.t	ortiq t.
1	Kontstrat yem.				
2	SHirali ozukalar A) silos. B) ildiz meva. V) senaj				
3	Dag'al xashak A) Pichan B) somon				
4	Ko'k o't				
Jami:					

2. 4. 200_ yilda yetishmagan ozuqani qoplash yoki ortiqcha ozuqadan samarali foydalanish yo'llari.

3. Xulosalar.

4. Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

5. Xujalikning yillik xisobotlari va rejalari

